

**ANDIJON VILOYATI HUDUDIDAGI ISSIQXONALARDA
MELOIDOGYNE AVLADI NEMATODALARINING TARQALISHI VA
ZARARI**

A.Sh. Egamberanova, Sh.O. Saidova, J.M. Yorqulov

O'zR FA Zoologiya instituti kichik ilmiy xodimi, e-mail:

egamberanova1992@mail.ru

O'zR FA Zoologiya instituti Phd., kichik ilmiy xodimi,

Annotatsiya. Andijon viloyatida olib borilgan tadqiqotlar yopiq tuproq sharoitida Meloidogyne avlodi nematoda turlarining tarqalishi hamda tuproqlarning zararlangan maydonlari turlicha ekanligini ko'rsatdi. Asaka va Shahrixon tumanlari hududlarida bo'rtma nematodalar bilan zararlanish nisbatan yuqori darajadaligi (66,7%) alohida ahamiyatga ega. Hududda turlar asosan aralash invaziya holatida bo'lishi, ya'ni *M. arenaria* va *M. hapla* hamda *M. incognita* va *M. hapla* turlari bir o'simlik-xo 'jayinda uchrashi qayd etildi.

Annotation. Studies conducted in the Andijan region showed that the distribution of nematode species of the genus Meloidogyne in closed soil conditions and in affected areas of soil is different. Of particular importance is the relatively high level of nematode infestation in the Asaka and Shahrikhan regions (66.7%). In the region, it was noted that the species are predominantly in a state of mixed invasion, that is, the species *M. arenaria* and *M. hapla*, as well as the species *M. incognita* and *M. hapla*, are found on the same host plant.

Аннотация. Исследования, проведенные в Андижанской области, показали, что распространение видов нематод рода Meloidogyne в условиях закрытого грунта и пораженных участков почвы различно. Особое значение имеет относительно высокий уровень зараженности нематодами в Асакинском и Шахриханском районах (66,7%). В регионе отмечено, что виды находятся преимущественно в состоянии смешанной инвазии, то есть виды *M. arenaria* и *M. hapla*, а также виды *M. incognita* и *M. hapla* встречаются на одном растении-хозяине.

Bugungi kunda dunyo bo'yicha atrof-muhitning global ravishda o'zgarishi qishloq xo'jaligi sohasida madaniy o'simliklarda parazitlik qiluvchi organizmlarning keng tarqalishiga va ularning parazitlik ta'sir ko'lamenti ortib borishiga olib kelmoqda. Bu borada o'simlik parazit nematodalarini ta'siri natijasida qishloq xo'jaligi sohasida madaniy o'simliklarning hosildorligi keskin pasayishi kuzatilmogda. Xozirgi vaqtda o'simlik parazit nematodalarining 4100 turi identifikatsiya qilingan, ularning ayrim turlari iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlariga sezilarli darajada zarar keltiradi. Jahon iqtisodiyotiga o'simlik parazit nematodalarining har yili keltiradigan zarari 77 mlrd. dollarni tashkil etishi aniqlangan [1]. Bu borada qishloq xo'jalik ekinlarini parazit nematodalar bilan zararlanishining oldini olish va qarshi kurash choralarini samarali usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jalik sohasining rivojlanishida madaniy o'simliklarni parazit nematodalardan himoya qilish muhim bo'lib, ixtisoslashgan parazit

nematodalarning turlar tarkibi, biologik va funksional xususiyatlari, ular sonini cheklashda turli usul va vositalarni qo'llashning ilmiy asoslariga doir tadqiqotlarni olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda madaniy va yovvoyi o'simliklarda parazitlik qiluvchi xavfli patogenlaridan biri *Meloidogyne* Göeldi, 1887 avlodи nematodalar keng tarqalgan bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlariga jiddiy zarar etkazadi. Shuni aytish kerakki, respublikamizning tuproq-iqlim sharoiti meloydoginlarning rivojlanishi va tarqalishi uchun qulayligi sababli, hozirgi kunda bu nematodalar mamlakatimizning barcha hududlaridagi ochiq va yopiq tuproqlarida keng tarqalgan.

Tadqiqot maqsadi. Andijon viloyati hududidagi issiqxonalarda *Meloidogyne* avlodи nematodalarining tarqalishi va zararini o'rganishdan iborat. Tadqiqot materiali va usullari. Tadqiqot materiallari 2023-yil Andijon viloyatining Andijon, Asaka, Baliqchi, Buloqboshi, Bo'ston, Izboskan, Oltinko'l, Xo'jaobod, Shahrixon, Jalaquduq tumanlarining issiqxonalarida yetishtirilgan bodring, pomidor, baqlajon va bulg'or qalampiri ekinlarida olib borildi (1-rasm). Dala sharoitida kuzatuvlar bo'rtma nematodalarni aniqlash tavsiyasi bo'yicha marshrut usulida olib borildi. Zararlangan o'simliklar soni maydon birligi bo'yicha quyidagi formula orqali foizda belgilanadi:

$$S = \frac{M}{N} \times 100$$

Bunda:

S – hududda meloydoginozning tarqalishi (% da);

N – maydondagi vizual tekshiruvdan o'tkazilgan o'simliklarning umumiy soni;

M – maydondagi nematodalar bilan zararlangan o'simliklar soni.

O'rganilgan hududda tekshirilgan o'simliklarning 50% dan ortig'i bo'rtma nematodalar bilan zararlangan bo'lsa, bu maydon kuchli zararlangan hisoblanadi; zararlangan o'simlik 50% dan kam bo'lsa, lekin 15% dan kam bo'lmasa, bu maydon o'rtacha zararlangan; zararlangan o'simliklar 15% dan kam bo'lsa kuchsiz zararlangan maydonlar hisoblanadi [3].

Meloidogyne avlodи nematodalar lichinkalari va urg'ochilarini o'simlik ildizi va tuproqdan ajratib olishda Berman voronkali [2,5] va ildizni inkubatsiya qilish [4] uslublaridan foydalanildi. Bo'rtma nematodalarining tur tarkibini aniqlashda ularning jinsiy yetilgan urg'ochilarini tanasining perineum qismidan E.S. Kiryanova va E.L. Krall [3] uslubi bo'yicha preparatlar tayyorlandi. Urg'ochi bo'rtma nematodasining anal-vulvar plastinkali preparatlari steriomikroskopda (NSZ-405), lichinka va tuxumlarning mikrofotografiyasi trinokulyar mikroskopi (NLCD-307B) yordamida tayyorlandi.



●- Tadqiqot olib borilgan hududlar

1-rasm. Tadqiqot olib borilgan xududlar

Tadqiqot natijalari. Andijon viloyati yopiq tuproq sharoitida ildiz bo‘rtma nematodalarning tarqalishini aniqlash uchun tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlar viloyatning Andijon, Asaka, Baliqchi, Buloqboshi, Bo‘ston, Izboskan, Jalaquduq, Oltinko‘l, Xo‘jaobod va Shaxrixon tumanlarining fermer xo‘jaliklari va shaxsiy tamorqalardagi issiqxonalarda olib borildi (1 - jadval).

1-jadval

Meloidogyne avlodи nematodalarining tadqiqot hududlarida tarqalishi

Tuman va fermer xo‘jaliklar nomi	O‘rganilgan hudud maydoni (ga)	Zararlangan		<i>M. javanica</i>	<i>M. arenaria</i>	<i>M. incognita</i>	<i>M. hapla</i>
		ga	%				
Andijon t., shaxsiy tomarpa	2,4	1,3	51,2	-	+	+	-
Asaka t., shaxsiy tomarpa	2,8	1,97	70,36	+	+	+	-
Asaka t. “Maxmudjon issiqxona maxsulotlari” oilaviy korxonasi	0,8	0,43	53,75	+	+	+	-
Baliqchi t., shaxsiy tomarpa	0,6	0,41	68,33	-	+	+	-
Baliqchi t., “Agro busines” MCHJ	1,2	0,79	65,83	-	+	+	-
Buloqboshi t., shaxsiy tomarpa	1,3	0,45	26,7	-	+	-	+
Bo‘ston t., shaxsiy tomarpa	1,7	0,8	47,1	-	+	+	-
Izboskan t.,	1,6	0,98	61,25	-	+	-	+

shaxsiy tomarpa								
Izboskan t., “Rustamjon Zamin rivoji” f/x	0,6	0,42	0,7	-	+	-	-	+
Jalaquduq t., shaxsiy tomarpa	1,5	0,7	46,7	-	+	-	-	+
Oltinko‘l t., shaxsiy tomarpa	1,9	0,80	42,1	+	+	+	-	
Xo‘jaobod t., shaxsiy tomarpa	1,2	0,65	54,1	-	+	-	-	+
Shahrixon t., shaxsiy tomarpa	1,7	1,09	64,2	-	+	+	-	
Shahrixon t., “Universalagroly uks” f/x,	0,7	0,32	45,7	-	+	+	-	

Andijon viloyati Andijon tumanidagi fermer xo‘jaliklarining 0,8 ga va 1,6 ga shaxsiy tomarqlarda tekshiruvlar olib borildi. O‘rganilgan issiqxonalarining 51,2% maydon *Meloidogyne* avlodи nematodalari bilan zararlanganligi aniqlandi. Issiqxonalar tuprog‘i va o‘simlik ildizlaridan 2 tur - *M. arenaria* va *M. incognita* qayd etildi.

Asaka tumani aholi shaxsiy tamorqalari va “Maxmudjon issiqxona maxsulotlari” oilaviy korxonasi tadqiqot hududi sifatida jami 3,6 ga yer maydoni olindi. Izlanishlar 2,4 ga, yoxud 66,7% maydon zararlanganligini ko‘rsatdi. Ildiz bo‘rtma nematodalarining *M. javanica*, *M. arenaria* va *M. incognita* turlari tarqalganligi ma’lum bo‘ldi.

Baliqchi tumanidagi “Agro busines” MCHJ va aholi shaxsiy tomorqalarida 1,8 ga issiqxona maydoni o‘rganildi. Tekshirilgan tuproqlarning 1,2 ga yoki 66,7% qismi *M. arenaria* va *M. incognita* nematodalari bilan zararlanganligi aniqlandi.

Buloqboshi tumanining shaxsiy tamorqalarida jami 1,3 ga maydon tekshirildi. O‘rganilgan maydonning 34,6% ya’ni 0,45 ga maydon zararlanganligi qayd etildi. Tumandagi issiqxonalarining o‘rganilgan maydonlarida *M. arenaria* va *M. hapla* turlari aniqlandi.

Bo‘ston tumani umumiyligi maydoni 1,7 ga ni tashkil qilgan shaxsiy tamorqalar o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra 0,8 ga maydon zararlanganligi, bu esa umumiyligi maydonning 47,1% ni tashkil qilishi ma’lum bo‘ldi. Bu tumanning yopiq tuproq sharoitida *M. arenaria* va *M. incognita* turlari qayd etildi.

Izboskan tumanida izlanishlar “Rustamjon Zamin rivoji” f/x issiqxonasi va shaxsiy tamorqalarining 2,2 ga yer maydonida olib borildi. Tadqiqot natijalari 1,38 ga maydonni zararlanganligini, bu tekshirilgan umumiyligi maydonning 65,6% ni tashkil qilishini ko‘rsatdi. Issiqxonalarda bo‘rtma nematodalarining *M. arenaria* va *M. hapla* turlari uchratildi.

Viloyatning Jalaquduq tumanidagi aholi shaxsiy tomorqalaridagi jami 1,5 ga issiqxonalar tuprog‘i va o‘simliklar ildizni tekshirildi. O‘rganilgan hududning


<https://tiamebb.uz>

<https://uz-conference.com>

0,7 ga qismi yoki 46,7% maydonida *M. arenaria* va *M. hapla* turlari qayd etildi. Oltinko'l tumani hududidagi shaxsiy tamorqalarning 1,9 ga maydonida tekshiruvlar o'tkazildi. Bunda umumiy tekshirilgan hududning 42,1% ya'ni, 0,8 ga maydoni zararlanganligi aniqlandi. Tuman issiqxonalarida nematodalarining *M. javanica*, *M. arenaria* va *M. incognita* turlari tarqalganligi ma'lum bo'ldi. Xo'jaobod tumani shaxsiy tamorqalarning umumiy 1,2 ga yer maydonida tadqiqotlar olib borildi. Yer maydonining zararlanishi 54,1% ni tashkil qilib, tadqiqot o'tkazilgan issiqxonalarining 0,65 ga maydonni tashkil qildi. Yopiq tuproq sharoitida uchrovchi nematodalarining *M. arenaria* va *M. hapla* turlari uchrashi kuzatildi.

Shaxixon tumani "Universalagrolyuks" fermer xo'jaligi hamda shaxsiy tamorqalarining jami 2,4 ga hududidan tuproq namunalari va o'simlik ildizlari tekshirilib, 1,6 ga maydon ya'ni 62% zararlanish aniqlandi. Tuman issiqxonalarida *M. arenaria* va *M. incognita* turalri uchrashi aniqlandi.

Andijon viloyatida olib borilgan tadqiqotlar yopiq tuproq sharoitida *Meloidogyne* avlodni nematoda turlarining tuman va shaharlarda tarqalishi, tuproqlarning zararlangan maydonlari turlicha ekanligini ko'rsatdi. Asaka va Shahrixon tumanlari hududi bo'rtma nematodalar bilan zararlanish nisbatan yuqori darajadaligi (66,7%) alohida ahamiyatga ega. Hududda turlar asosan aralash invaziya holatida bo'lishi, ya'ni *M. arenaria* va *M. hapla* hamda *M. incognita* va *M. hapla* turlari bir o'simlik-xo'jayinda uchrashi qayd etildi (2 - rasm).



2 – rasm. Andijon viloyati tumanlari hududining *Meloidogyne* avlodni nematodalarini bilan zararlanishi.

Shuningdek, zararlangan va sog'lom o'simliklar ustida bir qator tadqiqotlar xam olib borildi. nematoda bilan zararlangan o'simliklar tajriba va sog'lom (nematoda bilan zararlanmagan) nazorat guruhlariga ajratildi. Jumladan, o'simliklarning Andijon viloyati hududi issiqxonalarida *Meloidogyne* avlodni nematodalarining zarari o'rGANILGAN o'simliklarda nematodaning salbiy ta'sirida o'simliklarning morfologik, anatomik va fiziologik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatganligi ma'lum bo'ldi. Sog'lom o'simliklar ildizida o'zgarishlar sodir bo'lmasligi, zararlangan ildizda esa ildizning tashqi morfologik tuzilishi

nematoda ta'sirida o'zgarganligi, ya'ni ildizda bo'rtma hosil bo'lganligi tajriba kuzatuvlarimizda aniqlandi. Tadqiqotning boshlang'ich bosqichlarida bo'rtma nematodalar bilan sun'iy zararlantirilgan bodringda tajriba va nazorat o'simliklarning rivojlanishi orasida sezilarli farq kuzatilmadi (2 - jadval).

Tajribadagi bodring o'simligi organlarining o'lchamlari (n=10) 2 - jadval

O'simlik organlari	1-hafta		2-hafta		3-hafta		4-hafta	
	Tajriba	Nazorat	Tajriba	Nazorat	Tajriba	Nazorat	Tajriba	Nazorat
Poya uzunligi (sm)	19±1,8	19,1±2,1	25±2,0	27±2,8	33±2,3	31±1,9	37±3,2	33±2,2
Poya aylanasi (sm)	0,55±0,1	0,5±0,1	3,5±0,55	3,2±0,18,	4,6±0,6	4,0±0,2	5,3±0,2	4,1±0,3
Barglar soni (sm)	3±0,2	2±0,1	10±0,7	10±0,5	19±0,5	15±0,4	13±1,1	10±0,8
Barg uzunligi (sm)	5±0,7	4±0,4	7±0,9	6,5±0,5	12±0,8	11±0,6	9,5±0,7	7±0,5
Barg eni (sm)	5,5±0,7	5,5±0,5	11,5±0,7	10±0,6	12,9±0,7	11±0,4	16,5±1,6	13±0,5
O'q ildiz uzunligi (sm)	7±0,7	5±0,4	13±0,6	9±0,5	28±0,8	16±0,6	31±2,3	23±1,6
Yon ildiz uzunligi (sm)	7±0,6	5,3±0,5	13,5±0,7	9,5±0,6	21±1,7	12,3±0,5	22±1,7	13±0,8
Gullar soni	-	-	1±1	-	7±2	6±1	11±3	9±2
Mevalar og'irligi (kg)	-	-	-	-	1,1±0,7	2,5 ±1	1,3±1	3,7±2,4

Kuzatuvlarning keyingi bosqichlarida o'simliklarda meloydoginoz simptomlari namoyon bo'la boshladи. 2-haftadan keyin nazorat va tajriba o'simliklarining rivojlanishida sezilarli darajada farq kuzatildi. Tajriba o'simliklar ildizdagи lichinkalar zichligining ko'payishi ularning o'sish va rivojlanishga ta'siri kuzatildi. Gul tugunaklarni hosil bo'lishi, gullah va mevalarni shakllanishi nazorat o'simliklarida bir me'yorda kechdi, tajriba o'simliklarda nazoratga nisbatan ertaroq hosil bo'lganligi aniqlandi. Lichinkalar sonining ortishi o'simliklarning meva hosil qiluvchi elementlarini shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. O'simliklarda nazorat variantlarida asosiy novdalarning har birida 6-9,5 tagacha gul shonalari shakllanganligi va ularda gul kurtaklarini hosil bo'lganligi aniqlandi. Meva hosil bo'lishi o'rtacha 3- hafta tajribada - 1,1 kg, nazoratda 2,5 kg; 4-hafta tajribada – 1,3 kg, nazoratda - 3,7 kg ni tashkil etdi.

Tajribadagi ildizda bo'rtma nematodalar miqdorini ortishi natijasida hosildorlik pasayishi kuzatildi.

Meloidogyne avlodi nematodalarining muayyan turi va o'simliklarning chidamlilik xususiyatlari o'simlik ildizida tuxum qo'yuvchi urg'ochi nematoda va tuxumlarning soni hamda ildizda bo'rtma hosil bo'lish intensivligini pasayishida ifodalananadi. O'simlik ildizida hosil bo'lgan bo'rtmalarning o'lchamlari parazit turiga, spetsifik holatiga bog'liq, shuningdek o'simlikning kasallikka chidamlilik xususiyatiga, oziqlanish sharoitlari va boshqa bir qator omillarga ham bog'liq. Bo'rtmalarning o'lchamlari o'simlik ildiz to'qimalarining qalinligi va ildiz tizimining tuzilish xususiyatlari va shuningdek lichinkaning kirish usullariga ham bog'liq.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, Andijon viloyatida olib borilgan tadqiqotlar yopiq tuproq sharoitida *Meloidogyne* avlodi nematoda turlarining tuman va shaharlarda tarqalishi hamda tuproqlarning zararlangan maydonlari turlicha ekanligini ko'rsatdi. Asaka va Shahrixon tumanlari hududlarida bo'rtma nematodalar bilan zararlanish nisbatan yuqori darajadaligi (66,7%) alohida ahamiyatga ega. Hududda turlar asosan aralash invaziya holatida bo'lishi, ya'ni *M. arenaria* va *M. hapla* hamda *M. incognita* va *M. hapla* turlari bir o'simlik-xo'jayinda uchrashi qayd etildi. Tadqiqot olib borilgan zararlangan va sog'lom bodring ekinida hosildorlik nazorat ekinida tajribaga nisbatan 44 % yuqoriligi, tajribadagi ildizda bo'rtma nematodalar miqdorini ortishi natijasida hosildorlik pasayishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Juan E. Palomares-Rius, Escobar C., Cabrera J., Vovlas A. and Castillo P. Anatomical alterations in plant tissues induced by plant-parasitic nematodes // Frontiers in plant science. – 2017. V. 8. – P. 1-16 [Ingliz tilida].
2. Kazachenko I.P., Muxina T.I. Kornevie gallovie nematodi roda Meloidogyne Goeldi (Tylenchida: Meloidogynidae) mirovoy fauni. – Vladivastok: Dalnauka, 2013. – 307 s [Rus tilida].
3. Kiryanova Ye.S., Krall E.L. Paraziticheskiye nematodi rasteniy i meri borbi s nimi. V 2-x t. – Leningrad: Nauka, 1969. T. 1. – 441 s [Rus tilida].
4. Metliskiy O.Z. Videleniye nematod iz tkaney rasteniy // Selskoye khozyaystvo za rubejom, 1976. - №12. – S. 26-28 [Rus tilida].
5. Tagiyev M. M. Rasprostraneniye gallovia nematod. Integrirovannaya borba s nimi / M. M. Tagiyev // Agrarnaya nauka. - 2014. - № 2. - S. 21-24
6. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУГОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУГОРИЛГАН ОЛМА БОГЛАРИНИНГ ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТГИЧЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).
7. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).

8. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G 'O 'ZANI SUG 'ORISH TEXNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).
9. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176
10. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).
11. Fazliyev, J. (2018). Modern irrigation methods for gardens. Science, 22, 24-26.
12. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. The Way of Science, (4), 77.
13. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.
14. Khudaev, I., & Fazliev, J. (2022). Water-saving irrigation technology in the foothill areas in the south of the Republic of Uzbekistan. Современные инновации, системы и технологии, 2(2), 0301-0309
15. Фазлиев, Ж. Ш. (2017). Боғларда томчилатиб сўғориш технологияси. Интернаука, (7-3), 71-73.
16. Худайев , И., & Тожиев , Ш. (2023). БОҒ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(1). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/220>
17. Фазлиев Жамолиддин, Тожиев Шерзод, & Холиков Шарифбек. (2024). СПОСОБЫ ЭКОНОМИИ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В САДАХ. Uz-Conferences, 1(1), 520–525. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/110>
18. J.Sh.Fazliev., Sh.M.Tojiev., Sh.D.Khalikov. (2024). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. Uz-Conferences, 1(1), 504–509. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/107>
19. I.J.Xudayev, I.J.Xudayev, & Sh.M.Tojiyev. (2024). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G'О'ZANI SUG 'ORISH TEXNOLOGIYASI. Uz-Conferences, 1(1), 514–519. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/109>
20. Khamidov, M. K., Juraev, U. A., Buriev, X. B., Juraev, A. K., Saksonov, U. S., Sharifov, F. K., & Isabaev, K. T. (2023, February). Efficiency of drip irrigation technology of cotton in saline soils of Bukhara oasis. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1138, No. 1, p. 012007). IOP Publishing.